langan 129 oyatdan iborat sura ham mavjud bo‘lib, shu birgina suraning o‘zida tavba so‘zi 15 marta qo‘llanilgan [4].

*Mag‘firat, mag‘firatli, mag‘firat qilmoq* (arabcha –“غَفَرَ” fe’li ma’nosida bo‘lib, “kechirish”, “yashirish” va “berkitish” ma’nolarini bildiradi) so‘zlari 196 marta (“Aniqki, bandalarimdan bir guruhi: «Robbimiz, biz iymon keltirdik. Bizni mag‘firat qilgin. Bizga rahm qilgin. Sen rahm qiluvchilarning yaxshisisan», degan edilar” (Nur surasi, 109-oyat).

*Tazarru, tazarru qilmoq* (uzr bilan yalinish, yolvorish) - 7 marta (“*Qaysi bir shahar-qishloqqa rasul yuborsak, albatta, shoyad tazarru qilsalar deb, uning ahlini zararlar va musibatlar ila tutganmiz*” (A’rof surasi, 94-oyat).

Ma’lumki, Imom Ismoil al-Buxoriyning „Al-Jome’ As-Sahih“ kitobi Islomda ishonchliligi jihatidan Qurondan keyingi ikkinchi manba bo‘lib hisoblanadi. Mazkur kitobning 4 jildi statistik tahlil qilinganda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldik: *Kechirmoq* fe’li 129 marta (“Sizlardan qaysiningiz qavmga zararu boshqalarga manfaat yetkazuvchi amaldor bo‘lib qolsangiz, ansorlarning yaxshi ishlarini qabul qilib, yomon ishlarini kechiringizlar!» deb marhamat qildilar (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

*Afv qilmoq /etmoq* fe’li 176 marta (“Guvohlik beramanki, Olloh taolo ul kishini afv etib, gunohlarini kechirdi” (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

*Mag‘firat, mag‘firatli, mag‘firat qilmoq* fe’li 211 marta. («Yo parvardigorim, gunohlarimni, jaholatimni, me’yordan ortiqcha qilgan barcha ishlarimni va o‘zing mendan yaxshiroq xabardor bo‘lgan qilmishlarimni mag‘firat qilg‘aysan!” (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (4-jild).

**Xulosa.** Ko‘rinadiki, diniy matnlar kechirim nutqiy aktining ifodalanishida muhim va maxsus manba sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar ham buning yaqqol dalilidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Dementiev. V.V. Theories of speech genres. Moscow, “Znak”, 2010, p. 594.

(2). Gadomsky A.K. On the genres of the religious language in Russian and Polish theolinguistics. Style, 2009, № 8, p. 107–118.

(3). Itskovich T.V. Genre system of religious style. Moscow, 2021.

(4). Karasik V.I. Language circle: personality, concepts, discourse. Volgograd: Change, 2002, 477 p.

(5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, 241-bet.

(6). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild, 631-bet.

(7). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2022, 1-jild, 162-bet.

(7). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild, Toshkent, «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2000, 408-bet.

**Qurbanov Muxtarbay Dauletbaevich (Nukus DPI “Qoraqalpoq tili” kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi; muxtar_kurbanov@mail.ru)**

## QORAQALPOG‘ISTON ETNOOYKONIMLARI TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Maqolada Qoraqalpog‘iston etnooykonimlari, jumladan, o‘zbek millati, uning tarkibiga kiruvchi urug‘ nomlari bilan bog‘liq oykonimlar, ularni o‘rganishning ahamiyati, o‘zbeklarning mazkur hududga ko‘chib kelish tarixi, joylashish areallari tahlil qilingan. Mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy va tavsif metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot xulosalari qoraqalpoq toponimikasiga foydali manba bo‘lishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:*** *etnonim, urug‘, qabila, qavm, xalq nomlari, etnotoponim, etnonim bilan atalgan joy nomlari, etnooykonim, etnonim asosli aholi yashash maskanlari nomlari.*

**Курбанов Мухтарбай Даулетбаевич (доцент кафедры Каракалпакского языкы НГПИ, кандидат филологических наук; muxtar_kurbanov@mail.ru)**

## АНАЛИЗ ЭТНООЙКОНИМОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

***Аннотация.*** *В статье анализируются этнонимы Каракалпакстана, в том числе узбекский народ, названия, связанные с названиями входящих в него родов, важность их изучения, история миграции узбеков в этот регион, ареалы их расселения. В процессе освещения темы использовались синхронный анализ, сравнительно-исторический и описательный методы. Выводы исследования могут стать полезным источником по топонимии Каракалпакстана.*

***Ключевые слова:*** *этноним, род, племя, народ, народные имена, этнотопоним, названия мест, названных этнонимом, этноним, названия населенных пунктов на основе этнонима.*

**Kurbanov Mukhtarbay Dauletbaevich (Associate Professor of the Karakalpak Languages Department of NSPI, Candidate of Philological Sciences; muxtar_kurbanov@mail.ru)**

## ANALIS OF ETHNOICONIMS OF KARAKALPAKSTAN

***Annotation.*** *The article analyzes the ethnonyms of Karakalpakstan, including the Uzbek people, names associated with the names of its clans, the importance of their study, the history of migration of Uzbeks to this region, and the areas of their settlement. Synchronic analysis, comparative-historical and descriptive methods were used in the process of covering the topic. The conclusions of the study can become a useful source on the toponymy of Karakalpakstan.*

***Keywords:*** *ethnonym, clan, tribe, people, folk names, ethnotoponym, names of places named by an ethnonym, ethnonym, names of settlements based on an ethnonym.*

**Kirish.** Toponimikada urug‘, qabila, qavm, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan geografik nomlar *etnotoponimlar,* aholi punktlari, qishloq, ovul nomlari *etnooykonimlar* deb yuritiladi. Etnonimlarning joy nomlariga o‘tishi toponimlarning gidronim, oronim, nekronim turlariga nisbatan oykonimlarda ko‘p uchraydi. Chunki, aholi yashash joylarining nomlanishida ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillar asosiy motiv hisoblanadi.

Etnooykonimlar ma’lum joyda turli urug‘, millat vakillari qo‘shni, aralash yashagan hududlarda paydo bo‘ladi. Etnonim biror joyni boshqasidan farq qiluvchi belgi vazifasini bajarganda oykonimga aylanadi. Bunday nomlar o‘sha qabila, urug‘ vakillarining o‘zlari tomondan emas, balki qo‘shni, ikkinchi qabila kishilari tomonidan beriladi. Etnonim asosli oykonimlar urug‘, qavm, xalq va millatlar, ularning tarixi, migratsiyasi haqida boy ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, etnooykonimlar hozirda assimilyatsiyaga uchragan yoki yo‘q bo‘lib ketgan xalqlarning o‘tmishda yashagan joylarini aniqlashda ishonchli manba bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Etnooykonimlarning tarqallish arealini tahlil qilish etnos vakillarining geografiyasi haqida ma’lumot olish imkonini beradi. Akademiklar V.V.Bartold, V.A.Gordlevskiylar o‘zlari o‘rganayotgan xalqlarning dastlabki yashash manzillarini aniqlashda etnotoponimlarni ishonchli manba sifatida foydalanganlar [1;3-b.]. A.P.Dulzon Sibirdagi qadimiy xalqlarning etnik tarkibini etnotoponimlar yordamida aniqlagan, N.A.Baskakov Moldaviya etnotoponimlarini tadqiq qilishi natijasida qipchoqlarning o‘sha hududlarda istiqomat qilgan joylarini ko‘rsatib berdi [5;189–295-b., 2;63–75-b.]. O‘zbek tilshunos olimlari S.S.Gubayev Farg‘ona vodiysi, A.Otajanova Xorazm hududi, A.Turabov Samarqand, A. Ergashev Andijon viloyati etnotoponimlari bo‘yicha olib borgan maxsus tadqiqotlarida urug‘, xalq va millatlar tarixi, etnik tarkibi hamda ularning yashash joylarini aniqlashda etnooykonimlar juda katta ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydilar [4;10, 11, 14-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy va tavsif metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Etnonim asosli oykonimlar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududlarida ko‘p uchraydi. Biroq ularning tarqalish geografiyasini bir xil deb bo‘lmaydi. Toponimshunos olim S.Qorayevning ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘iston toponimlarining 1/5 qismi etnooykonimlardir [8; 190-b.]. Qoraqalpog‘iston oykonimlari tarkibida qoraqalpoq urug‘ nomlaridan tashqari, o‘zbek, qozoq va turkmanlarning urug‘-aymoq nomlari ham toponimlar sifatida respublika xaritasidan kattagina o‘rin olgan. Bu esa shu xalqlar vakillari mamlakat hududida qadimdan yonma-yon yashaganliklarini ko‘rsatadi. Ma’lum bir hudud etnotoponimlarini tarixiy-lingvistik jihatdan tahlil qilishda etnos vakillari tarixi, ularning etnik tarkibi, migratsiyasini chuqur o‘rganish kerak.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining siyosiy-iqtisodiy, madaniy hamda etnik aloqalarining tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Akademik S.Kamolovning to‘g‘ri ta’kidlaganidek, qadimdan bu ikki xalqning ota-bobolari Janubiy Orol bo‘yi kengliklarida birga yashaganlar, qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini shakllantirishda qatnashganlar. *Qo‘yqirilgan qal’a* (er.av. IV asr), *To‘proqqal’a* (I–VI asr), *Qiyot qal’a* (VI–IX asr), *Mizdaxxon* (qadimiy va o‘rta asr) kabi qal’a hamda savdo markazlarini xorazmlilar – bugungi o‘zbek va qoraqalpoqlarning ajdodlari birgalikda qurgan [7;106-b.].

Orol dengizining janubiy bo‘ylari qadimgi Xorazm yerlari bilan tutashadi. Bu joylar qadimda Xiva xonligi tarkibida bo‘lgan. Xiva xonligi hududlarida turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, oz sonli tojik, yahudiy, eronlilar yashagan. Xonlikning asosiy o‘troq xalqi – bu joylarni qadimdan makon qilgan o‘zbeklardir [15]. Tarixiy manbalarda Xorazm o‘zbeklari etnogenezi, geografik joylashuviga qarab shimoliy o‘zbeklar va janubiy o‘zbeklar deb ikkiga bo‘lib qaralgan. Xorazm viloyati Turkmanistonning Toshhovuz viloyati hamda Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlarida istiqomat qiladigan o‘zbeklar Xorazmning asosiy xalqi, ular o‘zlarini qadimgi xorazmlilar avlodi deb hisoblaydilar. Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumani atrofi-

da yashayotgan shimoliy o‘zbeklar etnogenezi Orol bo‘yi xalqi hamda bu yerda shakllangan orolli o‘zbek qavmlari bilan aloqador [13;23-b.].

XVI asrning oxirida Oltin O‘rda qulagandan keyin o‘zbeklarning ko‘pchilik qismi shimoldan Orol bo‘ylariga ko‘chib kelgan hamda Xorazmning o‘troq xalqi bilan tezda aralashib ketgan. Orol bo‘yi o‘zbeklari XVI asrning oxirida (oz qismi XVIII asrning boshida) Sirdaryoning quyi bo‘ylaridan bu yerlarga ko‘chib kelgan bo‘lsa ham, qangli hamda qo‘ng‘irot urug‘lari xorazmlilar bilan avvaldan tarixiy aloqada bo‘lgan. Chunki bu ikki urug‘ qadimda O‘rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i hududlarida yasagan [13;25-b.]. Aslida, ikki hududdagi o‘zbeklar o‘zbek millatiga xos. Lekin o‘zbeklarning janubiy qismi xorazmlilar, shimol qismi qoraqalpoqlar, qozoqlar ham turkmanlar bilan birga aralashib yashaydi. Hatto orolli o‘zbeklar etnik tarkibi jihatdan Orol bo‘yidagi qoraqalpoq va qozoqlarga ancha yaqin. XVII asrning boshida Orol dengizi bo‘yida shakllangan Orol mamlakatida uch yuz mingga yaqin o‘zbeklar (*qo‘ng‘irot, qipchoq, qang‘li, mang‘itlar*) yashagan. Ularning etnik bo‘linishi qadim davrlardan buyon qoraqalpoqlarning urug‘ bo‘linishlariga juda o‘xshash bo‘lgan. Bu holat ikki xalqning bir-biriga yaqin, etnogenezida tarixiy bog‘liqliq borligidan darak beradi [12;33-b.].

M.U.Shalekenov tarixiy manbalarga tayanib, Amudaryoning quyi deltasida o‘zbek urug‘larining joylashuv geografiyasini quyidagicha ko‘rsatib beradi: mang‘itlar Amudaryoning ong qirg‘og‘ida, qo‘ng‘irotlar chap qirg‘oq sohillarda yasaganlar. Mang‘itlarning ma’muriy markazi Shaxtemir qal’asi hozirgi Nukus shahridan shimolda joylashgan edi. Qo‘ng‘irotlar hozirgacha o‘z nomini saqlab qolgan Qo‘ng‘irot shahri atrofini makon etgan. Qipchoqlarning yashash joylari Amudaryo deltasining ustida joylashgan hozirgi Qipchoq posyolkasi atroflariga to‘g‘ri keladi. Xo‘jayli o‘zbeklarining markazi Amudaryoning chap tomoni, ya’ni hozirgi tuman markazidagi Xo‘jayli shahri bo‘lgan [13;25-b.]. K.L.Zadixinaning ko‘rsatishicha, Amudaryoning quyi oqimi bo‘ylaridagi o‘zbeklar urug‘-aymoq bo‘lib yashashga odatlangan, shu bois bu hududlarda o‘zbek urug‘lari nomlari bilan atalgan *Qo‘ng‘irot, Qipchoq, Mang‘it, Xitoy, Nayman* oykonimlari paydo bo‘lgan [6;329-b.]. Olimning yuqoridagi ma’lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, o‘zbeklar hududiy joylashishi bo‘yicha Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli tumanlarida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ham bu hududlarda o‘zbek etnonimlari bilan aloqador kelib chiqqan geografik nomlarni ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, Nukus, Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlaridagi *O‘zbek avuli* ushbu hududda yashab kelayotgan o‘zbeklar bilan bog‘liq paydo bo‘lgan. Shuningdek, Amudaryo tumanidagi *Do‘rman* ovuli, *Qangli* ovuli, *Qoraqipchoq* ovuli, *Qo‘ng‘irot* ovuli, *Qipchoq* elati, *Mang‘it* shahri, Xo‘jayli tumanidagi *Qurbanaq* ovuli, Amudaryo hamda Qo‘ng‘irot tumanlaridagi *Xitoy* ovullari, Qo‘ng‘irot tumanidagi *O‘giz* ovuli, Qo‘ng‘irot, Sho‘manoy va Nukus tumanlaridagi *Sag‘ir* ovuli, Qo‘ng‘irot, Sho‘manoy tumanlaridagi *Sayat* ovuli v.b. oykonimlar o‘zbek urug‘lari nomlari bilan bog‘liq kelib chiqqan. *Tama* urug‘i qozoq, o‘zbek hamda qirg‘iz xalqlarining etnik tarkibida uchraydi. *Tama* urug‘i Amudaryo tumanidagi *Tama* ovuli oykonimida saqlangan. *Uyshin, Tuyaqli* ovullari ham o‘zbeklarning *uyshin* va *tuyaqli* urug‘lari nomlari bilan bog‘liq nom olgan. Ushbu hududdagi *Qo‘ng‘irot* ovuli atamasi XIII asrning o‘rtalarida bu joylarga ko‘chib kelgan o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i bilan aloqador paydo bo‘lgan [9; 129-b,]. Keltirilgan misollar o‘zbek urug‘larining tarqalish geografiyasi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Amudaryo tumanining markazi *Mang‘it* 1973-yildan boshlab shahar maqomini olgan. Qadimda (1789-yilda) bu joyda *Mang‘it* deb atalgan qal’a bo‘lib, u o‘zbeklarning *mang‘it* urug‘ nomi bilan bog‘liq paydo bo‘lgan. *Mang‘it* toponimi Moldaviya va Bashqurtston hududlarida ham uchraydi.

Taxiatosh tumanidagi *Nayman* ovuli aholosining asosiy qismi o‘zbeklarning *nayman* urug‘i vakillaridir. Beruniy, Qonliko‘l, Qo‘ng‘irot hamda Xo‘jayli tumanlaridagi *Nayman, Naymanko‘l* ovullari nomlari ham ushbu urug‘ bilan aloqador. Tarixdan ma’lumki, naymanlar etnik guruh sifatida qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek, turkman, qirg‘iz, no‘g‘ay xalqlarining etnogeneziga kirgan. Xorazm, Buxoro, Samarqand, Namangan, Toshkent viloyatlarida *Nayman*, Qozog‘istonda *Nayman mola, Naymansuek*, Turkmanistonda *Naymanoba, Naymangol* toponimlari naymanlarning tarqalish arealini ko‘rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Davrlar o‘tishi, turli xil ijtimoiy-siyosiy, tarixiy omillar ta’sirida oz sonli qavmlar, etnik guruhlar ko‘p sonli xalqlar tarkibiga qo‘shilib assimilyatsiyaga uchrashi, buning natijasida ularning etnik belgilari unutilishi, yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Ularning tarixi haqida (yozma yoki og‘zaki) ma’lumotlar saqlanib qolmagan taqdirda etnik materiallar, ayniqsa, etnotoponimlar qimmatli manba vazifasini bajaradi. Bu xil oykonimlar xalqlarning shakllanish tarixini, etnogenezi masalasini yoritishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi. Qoraqalpog‘iston toponimlari tizimida ham etnooykonimlar katta bir guruhni tashkil etadi. Kelgusida ular tarixiy, etnografik, lisonoy jihatdan tadqiq qilinishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 1. М., изд-во Восточной литературы, 1963, 1020 с.

(2). Баскаков Н.А. Родоплеменные названия кыпчаков в топонимии Южной Молдавии. Топонимика Востока. Новые исследования. М., “Наука”, 1964, 63–75 с.

(3). Гордлевский В.А. Избранные сочинения. Том I, М., изд-во “Восточной литературы”, 1960, 551 с.

(4). Губаева С.С. Этнонимы и топонимии Ферганской долины. Автореф. дисс. … канд. ист. наук, М., 1973, 21 с.

(5). Дульзон А.П. Этнический состав древнего населения Западной Сибири по данным топонимии. Материалы XXV Международного конгресса востоковедов, М., “Наука”, 1960, 189–295 с.

(6). Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т. 1, М., 1952, 319–426 с.

(7). Камалов С. Исторические корни дружбы узбекского и каракалпакского народов. “ӨзР ИА ҚБ хабаршысы”, Нөкис, 1993, № 4. 106–109-бетлар.

(8). Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005, 240-бет.

(9). Нуржонов К., Хўжаниёзов Ғ. Амударё. Тошкент, Тиббиёт, 2004, 152-бет.

(10). Отажанова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол. фан. номз. … дисс., Тошкент, 1997, 139-бет.

(11). Турабов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларнинг таҳлили. Филол. фан. номз. … дисс., Тошкент, 1999, 154-бет.

(12). Хожаниязов Г., Джумашев А. Этнический состав Аральско-Кунградского владения в XVII–XIX вв. Забытая страница истории. Оазисы Шелкового пути. Сб. науч. ст., М., Исламская книга, 2018, 131–141 с.

(13). Шалекенов М.У. Взаимоотношения народов Приаралья в XVIII–XIX вв. Алматы, “Ғылым”, 1995, 192 с.

(14). Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. … дисс., Тошкент, 2012, 123-бет.

(15). Эшов Б. Хива хонлиги (шайбонийлар, эронийлар, қозоқлар ва кўнғирот сулоласи). // http:// khorezmiy. uz/uz/pages/view/576

**Atabayeva Nilufar Atamuratovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Fakultetlararo chet tillar” kefedrasi o‘qituvchisi; nilufaratabayeva1983@gmail.com)**

## TEODER DRAYZERNING “JENNI GERXARDT” ROMANIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TARIJIMASIGA DOIR

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada taniqli Amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning “Jenni Gerxardt” romani misolida frazeologizmlar tarjimasi tahlil etildi. Ya’ni, roman matnida uchraydigan frazeologizmlarning o‘zbekcha shakli asliyat bilan solishtirilib, teng ekvivalentlik masalasi o‘rganildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *frazeologik birliklar, ekvivalentlik, shaklan tenglik, muqobil variant, grammatik qurilish, ma’no va uslubiy vazifa, tarjimon mahorati.*

## РОМАН ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА “ДЖЕННИ ГЕРХАРДТ”: О ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИИ

***Аннотация.*** *В данной статье проанализирован перевод фразеологизмов на примере романа «Дженни Герхардт» известного американского писателя Теодора Драйзера. То есть узбекская форма фразеологии, встречающаяся в тексте романа, сравнивалась с оригиналом и изучался вопрос равнозначности.*

***Ключевые слова:*** *фразеологизмы, эквивалентность, формальное равенство, альтернативный вариант, грамматическая конструкция, значение и структура, навыки переводчика.*

## THEODORE DREISER’S NOVEL “JENNIE GERHARDT”: ON THE TRANSLATION OF PHRASEOLOGY

***Annotation.*** *This article analyzed the translation of phraseological units on the example of the novel “Jenny Gerxardt” by the famous American writer Theodore Dreiser. That is, the Uzbek form of phraseology found in the text of the novel was compared with the original, and the issue of equivalence was studied.*

***Key words:*** *Phraseological units, equivalence, formal equality, alternative option, grammatical construction, meaning and structure, translator’s skills.*

**Kirish.** Amerika adabiyotining yirik vakillaridan biri Teodor German Albert Drayzerdir (1871–1945). U yozuvchi va jamoat arbobi bo‘lgan, o‘zining qirq besh yillik ijodiy faoliyati davomida “Baxtiqaro Kerri” (“Sister Carrie”, 1900), “Jenni Gerxardt” (“Jennie Gerxardt”, 1911), “Sarmoyador” (“Financier”, 1912), “Amerika fojiasi” (“American tragedy”, 1925) va shu kabi ko‘plab yirik romanlar va hikoyalar yaratgan. Drayzer asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima etilgan. Shu jumladan, adibning bir qator roman